


76. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat

Yondosh mavzu:
plakat.


To'g'ri burchak, tomoni,
tomonlari uzunliklari.



Maydonni shakllar bilan to'ldiring.



1. Plakatda qanday shakllarni ko'rish mumkin? Paletka yordamida har bir ko'pburchak qanday burchaklarga ega ekanini aniqlang.




2. Daftaringizga to'g'ri to'rtburchak va kvadrat chizing. Ularning burchaklarini paletka yordamida o'lchang. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning burchaklari haqida qanday xulosa qila olasiz?

To'g'ri to'rtburchak – bu barcha burchaklari to'g'ri burchak bo'lgan to'rtburchak. **Kvadrat** – bu barcha tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak.




ABCD to'g'ri to'rtburchak



KLMN kvadrat

3. Rasmda nechta to'g'ri to'rtburchak bor? Ulardan nechitasi kvadrat?



76. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat



4. *BCFK* kvadrat yasang. Uning barcha tomonlarini yozing. *BC* tomon uzunligini o'lchang. Qolgan tomonlar haqida nima deyish mumkin?




5. Devorga osilgan plakat uzunligi 65 cm va kengligi uzunligidan 20 cm qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak ko'rinishiga ega. Plakat joylashtirilgan ramkaning perimetrini toping.



6. Ifodalarni hisoblang. Ularga mos harflarni ifodalarning qiymatlariga teng nuqtalarga qo'ying. Plakat boshqacha yana qanday ataladi?

E	$(765 - 583) - 62$	R	$706 - 478 - 98$
O	$17 + (819 - 796)$	S	$655 - (456 + 139)$
P	$534 - (179 + 345)$	T	$218 + 237 - 375$



7. Sonlar xossalaridan foydalanib, qulay usul bilan hisoblang.

$$45 + 296 + 55 + 4$$

$$78 + 302 + 22 + 98$$

$$1 + 3 + 5 + 7 + 9$$

$$10 + 30 + 50 + 70 + 90$$

$$102 + 104 + 106 + 108$$

$$207 + 169 + 31 + 93$$



8. Matndan x ni toping:

x soniga 120 ni qo'shib, natijadan 540 ni ayirib, 170 va 250 sonlari yig'indisiga teng bo'lgan songa ega bo'ldik.



9. Tomoni 5 cm bo'lgan *AMNK* kvadrat chizing. Kvadratni hosil qilgan hamma kesmalarni yozing. Uning perimetrini toping.